

## **MUBOLAG‘A BADIY VOSITASINING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA QO‘LLANISHI**

**Kamola Aripova Yusupovna**

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası

katta o‘qituvchisi (PhD)

+99877-430-44-42

e-mail: [kamolakind@mail.ru](mailto:kamolakind@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada mubolag‘a badiiy vositasining nazariy asoslari hamda uning “Kecha va Kunduz” romanidagi qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Mubolag‘aning ma‘no ko‘chishi asosidagi uslubiy vosita sifatidagi o‘rni, uning son va sifat ko‘rsatkichlari orqali fikrni ta‘sirchan ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mubolag‘aning badiiy matndagi estetik vazifalari va o‘quvchiga emotsional ta‘siri misollar asosida ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mubolag‘a, giperbola, badiiy vosita, ma‘no ko‘chishi, uslubiyat, “Kecha va Kunduz”, badiiy matn, trope, tilshunoslik, tasviriy ifoda.*

## **ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГИПЕРБОЛЫ В РОМАНЕ «НОЧЬ И ДЕНЬ»**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются теоретические основы гиперболы как художественного средства и особенности её применения в романе «Ночь и день». Освещается роль гиперболы как стилистического средства, основанного на переносе значения, а также её значение в усилении выразительности речи посредством количественных и качественных показателей. Кроме того, на примерах анализируются эстетические функции гиперболы и её эмоциональное воздействие на читателя.*

***Ключевые слова:** гиперболы, художественное средство, перенос значения, стилистика, роман «Ночь и день», художественный текст, троп, языкознание, выразительность речи.*

## THE USE OF HYPERBOLE AS A STYLISTIC DEVICE IN THE NOVEL “NIGHT AND DAY”

### ABSTRACT

*This article analyzes the theoretical foundations of hyperbole as a stylistic device and its usage in the novel “Night and Day.” The study highlights the role of hyperbole as a figurative means based on semantic transfer and explains its importance in enhancing expressiveness through quantitative and qualitative exaggeration. Furthermore, the aesthetic functions of hyperbole and its emotional impact on readers are illustrated through textual examples.*

**Keywords:** *hyperbole, stylistic device, figurative meaning, stylistics, “Night and Day,” literary text, trope, linguistics, expressive language*

### KIRISH

Ifodalanayotgan fikrning o‘z ma‘nosida emas, balki ko‘chma ma‘noda tushunilishini talab etuvchi, fikrning aslidan oshirib, bo‘rttirib ifodalanishi tilshunoslikda mubolag‘a deb yuritiladi. Azim Hojiyevning izohli lug‘atida keltirilgan ta‘rifga ko‘ra, mubolag‘a bu – narsa-predmet, voqea-xodisalarning belgi-xususiyatini, holatini o‘ta bo‘rttirib tasvirlash hisoblanadi<sup>1</sup>. “Mubolag‘a” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, bo‘rttirish, oshirish degan ma‘noni anglatadi. Mubolag‘a ham ma‘no ko‘chishining turlaridan biri bo‘lib, badiiy asarlarda keng qo‘llaniladi. Uning boshqa ko‘chim turlaridan asosiy farqi shundaki, avvalgi boblarda ko‘rib chiqilgan metonimiya, metaforalarda asosiy ma‘no ko‘chishi tushunchalar o‘rtasidagi ma‘lum o‘xshashlikka asoslanadi. Mubolag‘aning asosiy xossasi esa unda ifodalanayotgan voqea, narsa-hodisa, buyumlarning nihoyatda kichraytirib yoki kattalashtirib, kuchaytirib yuborilishidadir. Biroq, shunday bo‘lsa-da, ma‘lum chegaralarga e‘tibor berish kerak. Chunki “O‘zbek tili stilistikasi” darsligida keltirilishicha, o‘rinsiz qo‘llangan mubolag‘a asarning badiiyligi, ravonligiga putur yetkazib, o‘quvchida ishonchsizlik uyg‘otishi mumkin<sup>2</sup>. Ma‘no ko‘chishi asosida sodir bo‘lishi sababli mubolag‘a ham troplar guruhiga kiritiladi (Trop yun. tropos — nutqning o‘zgarishi, nutq ta‘sirchanligini oshirish uchun so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishini ifodalovchi badiiy-uslubiy tushuncha).

Mubolag‘ada nutq tuzayotgan so‘zlovchi bir ma‘noni xayol qiladi, biroq uni ifodalashda boshqa narsani so‘zlaydi<sup>3</sup>. Boshqacha qilib aytganda, yetkazilayotgan

<sup>1</sup>Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izoxdi lugati. —Toshkent: Uzbekistan milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. — B.30.

<sup>2</sup>Shomaksudov A., Rasulov I., Kungurov R., Rustamov X., O‘zbek tili stilistikasi. - Toshkent: 1983. – B.244.

<sup>3</sup>Stem J. *Metaphor in Context*. - London: MIT Press. 2000. – P.22.

nutqdagi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi boshqa, ularning kontekstual (nutq ichidagi) maʼnosi boshqa boʻlish hodisasi mubolagʻa deyiladi<sup>4</sup>.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mubolagʻa ishlatilayotganda soʻzlovchi bir tushunchaning aynan oʻzini aytmasdan, uning maʼnosini yanada kuchaytiradigan boshqa bir narsani aytadi<sup>5</sup>. Boʻrttirish orqali biz nutqimizga tinglovchiga yetkazish mumkin boʻlgandan koʻra koʻproq maʼno sigʻdira olamiz<sup>6</sup>. Mubolagʻa ming yillardan buyon ishlatilib kelinayotgan tasviriy ifoda vositasi boʻlib, uning dastlabki namunalari yunon klassik adabiyotida ham uchraydi<sup>7</sup>. Tilshunos olim T.Likning taʼrifiga koʻra, mubolagʻa asosida maʼno koʻchishi bizning kundalik nutqiy faoliyatimizda ham juda koʻp uchraydi. Shuningdek, qadimgi Rimda yashagan notiq Kvintil mubolagʻaga dehqonlar, bilimsiz odamlar kundalik hayotda qoʻllaydigan nutq hodisasi, deb taʼrif bergan. Mubolagʻani nutqda qoʻllash va uni tushunish uchun maxsus bilim talab etilmasligini taʼkidlash orqali olim balki mubolagʻaning tushunilishi oson demoqchi boʻlgandir. Mubolagʻa badiiy vositasi insonlar tomonidan juda koʻp vaqtlardan beri ishlatilib kelinsa-da, unga doir tadqiqotlar sezilarli darajada kamligi eʼtiborga molik<sup>8</sup>.

S.Burgers boshliq bir guruh tilshunoslar fikriga koʻra, “soʻzlarning asl maʼnosidan koʻra koʻproq maʼno ifodalash hodisasi” mubolagʻaga nisbatan toʻgʻri taʼrif boʻla oladi. Ularning taʼkidlashiga koʻra, mubolagʻa hosil boʻlishida uchta asosiy holat talab etilib, bu holatlarning topilishi mubolagʻani matn ichidan farqlab olishimizga yordam beradi. Mubolagʻaning birinchi belgisi boʻrttirish hisoblanib, u mubolagʻaning asosiy xossasidir. Ikkinchisi – soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi. Uchinchi xususiyat shuki, nutqimizda mubolagʻadan foydalanayotganimizni koʻrsatuvchi ishora boʻlishi kerak<sup>9</sup>.

Yuqorida sanab oʻtilgan belgilarga alohida izoh berib oʻtamiz. Mubolagʻaning asosiy ifoda shakli boʻrttirishda boʻlib, soʻzlovchining nutqida ifodalanayotgan fikrning aslidan oshirib, taʼkidlab koʻrsatishga yordam beradi. Oʻz nutqida mubolagʻani qoʻllayotgan soʻzlovchi biror bir belgi-xususiyatni nihoyatda

<sup>4</sup>Recchia H. E., Howe N., Ross H. S., & Alexander S. (2010). Children's Understanding and Production of Verbal Irony in Family Conversations. *British Journal of Developmental Psychology*, 28(2), 255-274. doi:10.1348/ - 026151008x401903.

<sup>5</sup>Claridge C. (2010). *Hyperbole in English: a corpus-based study of exaggeration*. - Cambridge, UK: Cambridge University Press.

<sup>6</sup>Burgers C., Brugman B. C., Lavalette K. Y., & Steen G. J. (2016). HIP: A Method for Linguistic Hyperbole Identification in Discourse. *Metaphor and Symbol*, 31(3), 163-178. doi:10.1080/10926488.2016.1187041.

<sup>7</sup>Claridge C. (2010). *Hyperbole in English: a Corpus-based Study of Exaggeration*. - Cambridge, UK: Cambridge University Press.

<sup>8</sup>Carston R., & Wearing C. (2015). Hyperbolic Language and its Relation to Metaphor and Irony. *Journal of Pragmatics*, 79, 79-92. doi: 10.1016/j.pragma. 2015.01.011

<sup>9</sup>Burgers C., Brugman B. C., Lavalette K. Y., & Steen G. J. (2016). HIP: A Method for Linguistic Hyperbole Identification in Discourse. *Metaphor and Symbol*, 31(3), 163-178. doi:10.1080/10926488.2016.1187041.

kichraytirib yoki kuchaytirib ko'rsatish orqali narsaning muhimligini ta'kidlaydi. Nutqda uzatilayotgan fikrning muhimligi unga berilgan ta'rifning haqiqatdan uzoq ekani tufayli ortadi. Ushbu gapni misol tariqasida keltirib o'tamiz: *U bunchalar foydali, qiziqarli kitobni butun dunyoni kezib ham topolmasligini bildi.*

Ushbu misolda, nutqning ta'sirchanligini orttirish maqsadida so'zlovchi o'z fikriga aqlga sig'mas tarzda urg'u berib, rost bo'lmagan narsa haqida ta'rif bermoqda. Gap muallifi "*butun dunyoni kezib ham topolmasligi*"ni aytib, rost emasligi aniq bo'lgan hodisa orqali kitobning nihoyatda kamyob va foydali ekaniga urg'u bermoqchi bo'lgan.

Nutqda mubolag'adan to'g'ri foydalana olish uchun ma'noni bo'rttirib ko'rsatishga asos bo'layotgan so'zning o'z va ko'chma ma'nosini yaxshilab o'rganishimiz zarur. Aks xolda, biz anglatmoqchi bo'lgan mubolag'ali tasvir g'aliz bo'lib qoladi, natijada nutq tinglovchiga tushunarsiz bo'lib, unda qiziqish uyg'ota olmaydi.

Shuningdek, mubolag'ada ma'no bo'rttirishning o'z mezon va me'yorlari mavjud bo'lib, ular ikkita – son hamda sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi<sup>10</sup>. Son ko'rsatkichi muhokama qilinayotgan narsaning qay darajada ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Mubolag'ani biz ham ijobiy, ham salbiy narsalarni ta'riflashda ishlatishimiz mumkin. Bo'rttirishning ikkinchi o'lchovi – sifat ko'rsatkichi esa ifodalanayotgan narsaga baho beradi. Mubolag'ani to'g'ri qo'llay olishimiz uchun nutqimizda ushbu ikki sifatdan kamida bittasi mavjud bo'lishi kerak.

Giperbola (mubolag'a)ning son ko'rsatkichida bo'rttirish aqlga sig'maydigan darajada bo'lib, bunda so'zlovchi hamda tinglovchining ikkalasi ham gapning rostligiga ishonmaydi. Son bilan bog'liq mubolag'a, odatda, vaqtni ifodalashda ko'p qo'llanadi. Masalan: *Buncha kech qolding, o'n soatdan beri kutaman!* Bu yerda biz kundalik so'zlashuvda ishlatadigan oddiy jumalardan biri keltirilgan. Bu yerda vaqtning haqiqiysidan ancha oshirib ko'rsatilishi nutq egasining juda uzoq vaqt davomida kutib turganiga urg'u berib ifodalashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi ko'rsatkichda mubolag'aning sifat xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilib, nutq davomida so'zlarning ko'chma ma'nosi anglashiladi. Biroq, nutqimizda sifat bilan bog'liq mubolag'ada unchalik bo'rttirib yuborish kuzatilmaydi, son ko'rsatkichli mubolag'aga esa bu holat xosdir.

Giperbolik nutq kontekstdan ajralib turadi: "*nutq yaratayotgan odamning so'zlari umumiy kontekstga zid bo'lib tuyuladi, aslida esa u fikrning kuchliroq tasdiq etilishini ta'minlovchi vositadir*" deydi tilshunos olim Gaella Ferri. Yana bir olim Klavdiya Klerij uning fikrlariga qo'shimcha tarzda aytadiki, giperbola (mubolag'a)

<sup>10</sup>Ferre G. (2014). Multimodal Hyperbole. *Multimodal Communication*, 3(1). doi: 10.1515/mc-20140003.

“bizga ma’lum bo’lgan vaziyatga yoki umumiy dunyo nuqtai nazaridan olib qaraganda” butunlay teskaridek ko’rinadi, va bu holat so‘zlovchidan ko‘ra ko‘proq “obyektiv kuzatuvchi” – tinglovchiga yaxshiroq seziladi, chunki u nutqni tinglash jarayonida “normal” holat haqida bilim va taxminlarni ishga soladi, nutqqa baho beradi<sup>11</sup>.

Mubolag‘aning bo‘rttirish darajasini ifodalovchi mezon yo‘q: tinglovchiga tushunarsiz bo‘lib qolmasligini hisobga olgan holda, so‘zlovchi o‘z fikrini istaganicha oshirish yoki kamaytirish orqali ta’kidlashi mumkin. Bunda so‘zlovchi qisqa bir muddatni ham bir kun, bir hafta, bir oy yoki bir yil deb ifodalashi ham mumkin. Bu kabi gaplarda mubolag‘aning anglashilishi so‘zlovchi nutqdan maqsad qilayotgan fikrga bog‘liq bo‘lib, sonni bo‘rttirish yoki kamaytirish orqali ta’sirni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Mubolag‘aga xos muhim bir xususiyat shuki, gapimizdagi bo‘rttirish qanchalik kuchli, haqiqatdan uzoq bo‘lishi hissiyotimizning qanchalik kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Masalan: *Bundan ko‘ra lazzatliroq taom butun dunyoda yo‘q.*

Keltirilgan jumlada ijobiy fikr ifodalanmoqda. So‘zlovchi taomning shirin ekanligiga urg‘u berish, o‘z hissiyotlarini ifodalash uchun mubolag‘ali tasvir vositasidan foydalangan.

Yuqorida aytib o‘tildiki, mubolag‘aning son va sifat ko‘rsatkichlari ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Yana shu jihat muhimki, bu ko‘rsatkichlar fikrning amalga oshmasligi aniq ekanini ham anglatadi<sup>12</sup>.

Mubolag‘ani aniqlash uchun qo‘llanadigan uslublarning ikkinchi turi shuki, bunday mubolag‘ani ishlatish so‘zning o‘z ma’nosi va ko‘chma ma’nolarining o‘zgarishiga olib keladi<sup>13</sup>. Giperbolada so‘zning asl ma’nosi asosiy ahamiyatini yo‘qotmaydi, ko‘chma ma’no ustidan ustunlikda bo‘ladi. Bu holat S.Klerij va J.Obrien kabi olimlarga ko‘ra “o‘lchamdagi farq” deb yuritiladi.

Ushbu gaplarni tahlil qilib ko‘ramiz:

1. *Bu kitobni yuz yilda ham o‘qib tugata olmasam kerak.*
2. *Bir lahzada kuz fasli ham yetib keldi.*

Birinchi jumlada vaqtning uzoq ekanligiga urg‘u berish maqsadida kattaroq sondan foydalanib vaqt ifoda etilgan (yuz yil). Unda keltirilgan ma’lumot yetkazilmoqchi bo‘lingan fikrdan ancha ortiq bo‘lib, uning rost emasligi ko‘rinib turibdi. Kitobni yuz yilda o‘qish deganda so‘zlovchi kitobni tugatish uchun juda uzoq

<sup>11</sup>Claudia Claridge.(2015). *Hyperbole in English: A corpus-based study of exaggeration*. ISBN 10: 052176635

<sup>12</sup>Claridge C. (2010). *Hyperbole in English: a Corpus-based Study of Exaggeration*. - Cambridge, UK: Cambridge University Press.

<sup>13</sup>Burgers C., Brugman B. C., Lavalette K. Y., & Steen G. J. (2016). HIP: A Method for Linguistic Hyperbole Identification in Discourse. *Metaphor and Symbol*, 31(3), 163-178. doi:10.1080/10926488.2016.1187041.

vaqt kerakligini ifodalagan, shuningdek, kitobning katta ekanligi haqidagi fikriga ham urg'u bergan. Ikkinchi gapda esa, fikrni ta'kidlash maqsadida sonning kichraytirilib ko'rsatilayotganiga guvoh bo'lamiz. Birinchi keltirilgan gapdan farqli o'laroq, ushbu gapda mubolag'ali tasvirning maqsadi gapdagi ma'noni yumshatish, ta'sir kuchini ozaytirib ko'rsatishdan iborat. *"Bir lahzada"* deyish orqali muallif *"nihoyatda tez"*, *"qisqa muddat ichida"* ma'nolarini ochib bergan. Shunisi e'tiborliki, sifatga bog'liq bo'lgan mubolag'ada bo'rttirishga asos bo'layotgan belgi-xususiyatning turi asliy va majoziy ma'nolarda teng kelishi lozim.

Qisqacha aytganda, kontekst hamda mubolag'ali tasvir o'rtasidagi ma'noviy qarama-qarshilikka qaramay, mubolag'aning vazifasi gapning umumiy ma'nosini yanada yaxshiroq ochib berish hisoblanadi, shu tufayli undagi ish-harakat, xususiyatning bo'rttirilishi bajarilayotgan nutqiy harakatga tegishli deb qabul qilinadi va o'z ma'nosida tushuniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yusupova, K. A. (2026). Badiiy tarjimaning ilmiy-nazariy asoslari va uning jahon adabiyotidagi roli. *International scientific journal of Biruni*, 5(1), 17-24.
2. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel "night and day". *Международный журнал искусство слова*, 4(1-2).
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2022. – 499 b.
4. Beekman J. Metonymy and Synecdoche. – *Notes on Translation*, 1967. – P. 12–18.
5. Nerlich B., Burkhardt A. *Tropical Truths: The Epistemology of Metaphor and Other Tropes*. – Walter de Gruyter & Co, 2010. – 36 p.
6. Mengliev B.R. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 b.
7. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
8. Radden G., Kövecses Z. *Towards a Theory of Metonymy*. – In: *Metonymy in Language and Thought*. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
9. Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2021.
10. Cho'lpon. *Kecha va Kunduz*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.